

YANGIQO'RG'ON SUV OMBORIDAGI MINORALI TURDAGI QUVURLI TUB SUV CHIQAZGICH

Pirmahmatova Ozoda Izomiddin qizi - talaba

Qarshi davlat texnika universiteti

Sodiqova Zarina Mirzoxid qizi - talaba

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: So‘ngi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvgaga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Kalit so‘zlar: Suv ombor, to‘g‘on, iqlim, gidrologik tavsif, muzlash rejimi, termik rejim, mineralizatsiya, kimyoviy tahlil.

Аннотация: В последние годы осуществляются последовательные реформы по эффективному использованию земельных и водных ресурсов, совершенствованию системы управления водными ресурсами, модернизации и развитию объектов водного хозяйства. Вместе с тем из года в год усиливается дефицит водных ресурсов в связи с глобальным изменением климата, ростом численности населения и отраслей экономики, их растущей потребностью в воде.

Ключевые слова: Водохранилище, плотина, климат, гидрологическая характеристика, режим замерзания, термический режим, минерализация, химический анализ.

Abstract: In recent years, consistent reforms have been carried out to effectively use land and water resources, improve the water resource management system, and modernize and develop water management facilities. At the same time, the shortage of water resources is increasing year by year due to global climate change, population growth, and the growth of economic sectors, as well as their demand for water.

Keywords: Reservoir, dam, climate, hydrological description, freezing regime, thermal regime, mineralization, chemical analysis.

Minorali turdag'i quvurli tub suv chiqazgich to‘g‘on chap tarafida joylashgan bo‘lib, xalokatli suv tashlagich bilan birlashtirilgan. Hisobiy suv sarfi 5 m³/s. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: Kirish qismi - uzunligi 5,0 m, konstruktiv jixatdan sho‘ng‘uvchi devorchalari balandligi 3,04 m bo‘lgan to‘g‘ri burchakli korobka shaklida ishlangan. Ostonasi otmetkasi 577.51 m; Bosimli uchastka – bir ko‘zli quvur bo‘lib, uzunligi 7,5 m, har birining uzunligi 2 m va diametri 1 m bo‘lgan 4 ta yig‘ma temir-beton quvurdan

qurilgan; Suv chikazgich minorasi balandligi 13,0 metr, ko‘ndalang kesimi o‘lchamlari $7,2 \times 2,5$ metr, monolit temir-betondan ishlangan. Bosimsiz uchastka-uzunligi 25,5 metr bo‘lgan bir ko‘zli quvurdan iborat bo‘lib, har birining diametri 1,5 metr va uzunligi 2,0 metr bo‘lgan 13 ta aylana kesimli yig‘ma quvurlardan tashkil topgan. 5,0 m³/s suv sarfini o‘tkazishga mo‘ljallangan;


Yangiqo‘rg‘on suv ombori to‘g‘oni ustining belgisini aniqlash, suv omboridagi bir jinsli to‘g‘onning filtratsiya hisobi va statik hisobi bajarildi.

To‘g‘on ustining satxini(belgisini) aniqlash.

$$vT.U = v MDS + d = 595,5 + 2,68 = 597,68 \text{ metr.}$$

To‘g‘onning balandligini aniqlash.

$$Nt = vT.U - vDTO = 597,68 - 570 = 27,68 \text{ metr.}$$



2.1.2 Yangiqo‘rg‘on suv ombori bir jinsli grunt to‘g‘onining ko‘ndalang qirqimi xisobiy sxemasi

Bitiruv malakiy ishimning Ekspluatatsiya qismida

- Ekspluatatsiya xizmatini tashkil etish
- Suv ombori ekspluatatsiyasining vazifalari
- Tashkiliy tizimi (struktura)
- Suv omborining ish rejimi
- Suv omborining suv balansi
- Suv omborini kuzatish ishlari.
- Suv ombori ekspluatatsiyasining vazifalari
- Xar xil suv manbalarida joylashgan va bir sug‘orish tizimiga xizmat qiluvchi suv omborlari guruxi va kaskadi uchun ekspluatatsiya umumtezkor va texnikaviy ekspluatatsiya qoidalari bo‘yicha amalga oshiriladi.
- *Umumtezkor ekspluatatsiyaning vazifalari quyidagicha:*
- - suv oqimini mavsumiy va ko‘p yillik boshqarishni hisobga olgan xolda ushbu xavzadagi tabiiy suv oqimini tejamkor va maqsadga muvofiq ravishda boshqarish;
- - ushbu sug‘orish manbasining tartibotini unda joylashgan suv omborining (yoki bir necha) ish tartibi bilan bog‘langan xolda tejamkor va maqsadga muvofiq ravishda boshqarish;

- - ushbu xavzaning barcha suv omborlarini birgalikda va aloxida ishlash qoidalari ishlab chiqish va muntazam ravishda aniqlashtirib borish;
- - suvgan bo‘lgan talabni qondirib borish.
- Texnik ekspluatatsiyaning vazifalari
- Texnik ekspluatatsiya – bu suv omboriga normal ishlash sharoitini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy va texnikaviy tadbirlar majmuasidir.
- Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:
- - suv omborida suv zaxirasini yaratish va uni sug‘orishga berish, davlat rejasini bajarish maqsadida suv omborining texnik qurilmalarini kundalik tezkor boshqarish;
- - barcha inshootlarning, aloqa vositalari, transport, yashash va ishlab chiqarish binolari va boshqa yordamchi qurilma va jixozlarning ekspluatatsiyasini tegishli meyorlar, standartlar, yuriqnomalar va uslubiy ko‘rsatmalarga muvofiq to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlash;
- - suv omborining ishlash tartibotini tasdiqlangan dispatcherlik grafigiga muvofiq suv omborini to‘ldirish va bo‘shatish bo‘yicha ekspluatatsiya rejalarini bajarish;
- - inshootlarning xolatini kuzatish va nazorat qilish hamda ularni ishchi xolatida tutish;
- - inshootlarni talab darajasidagi texnik xolatga keltirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish, bunda ularning tarkibi, bajarish muddati va ijrochilarini ko‘rsatib ta’mirlash ishlarini bajarish;
- - suv omborining ekspluatatsiyasi bo‘yicha xar yilgi xisobotlarni tuzgan xolda texnik xujjatlarni olib borish;
- - texnik ekspluatatsiyani yaxshilash va takomillashtirish;
- - fan, texnika yutuqlarini va ilg‘or tajribalarni tadbiq etish;
- - muxandis-texnik xodimlarning malakasini oshirish.

**1-jadval. Yangiyo‘rg‘on suv omborida ishlovchi MTX lar
va ishchi-xizmatchilar shtati.**

| № | Lavozimlar nomi | Xodimlar soni | F.I.SH |
|----------------------------------|---------------------------------------|----------------------|---------------|
| 1. | 2. | 3. | 4. |
| 1. | Boshliq | 1 | |
| 2. | 2-toifali muxandis-gidrotexnik | 1 | |
| 3. | Dispatcher | 4 | |
| 4 | Uchastka elektromexanigi | 1 | |
| Suv ombori bo‘yicha jami: | | 7 | |

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Bakiev M.R., Majidov U. Y., Nosirov B. Sh., Xo‘jaqulov R.T., Rahmatov M.I., Gidrotexnika inshootlari. 1 – jild. -T.: Yangi asr avlod, 2008.
- 2.Bakiev M.R., Majidov U. Y., Nosirov B. Sh., Xo‘jaqulov R.T., Rahmatov M.I., Gidrotexnika inshootlari. 2 – jild. -T.: Iqtisod-moliya, 2009.
- 3.Bakiev M.R., Majidov U. Y., Nosirov B. Sh., Xo‘jaqulov R.T., Saidov I.E., Gidrotexnika inshootlarini loyihalash. –T.: Fan va texnologiya, 2013.
- 4.Gidrotexnicheskiye soorujeniya. Pod red. N. P. Rozanova. -M.: Agropromizdat, 1985.
- 5.Справочник проектировщика. Гидротехнические сооружения. Под ред. В. П. Недриги. –М.:Стройиздат, 1983.
- 6.Курсовое и дипломное проектирование по гидротехническим сооружениям. Под. ред. В.С. Лапшенкова, -М.: Агропромиздат, 1989.
- 7.Husanxo‘jayev Z. X. Suv omborlaridagi gidrotexnika inshootlari. -T.: Mehnat, 1986.
- 8.Husanxo‘jayev Z. X. Daryodan suv olish inshootlari. -T.: O‘qituvchi, 1986.